

ZULFIYA IJODIDA JADIDONA KAYFIYATNING ZUHUR ETILISHI

Axmadaliyeva Mahliyo Sherali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi.
Chirchiq, O'zbekiston.

Annotatsiya: XX asr o'zbek adabiyotining muhim yo'nalishlaridan biri – jadidchilik harakati va uning Zulfiya ijodidagi badiiy ifodasi tahlili. Jadidning siyosiy, ma'naviy va estetik asarlariga nazar tashlanar ekan, Zulfiya ijodida, "Hayot varaqlari" dostoni hamda "Xotiram siniqlari" kabi asarlarida jadidona kayfiyat, tarixiy xotira va ma'rifiy ruhning ifodasi tahlili. Shoir o'z asarlarida tarixiy shaxslar, ilm-ma'lumotga bo'lgan intilish, din va jamiyat ziddiyatlarini fidokorona tarzda yoritadi. Tadqiqotda O.Sharafiddinov va D.Quronovlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy kabi jadidlarning g'oyalari bilan Zulfiya badiiy merosi o'zlariga tegishli ideaviy bog'liqlik yoritiladi. Maqolada jadidchilikning, uning turli bosqichdagi siyosiy baholanishi, shoiraning bu'oyalarga munosabati chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'z: Jadidchilik, Zulfiya, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, ma'rifiy adabiyot, istiqlool, tarixiy xotira, badiiy tafakkur.

THE EXPRESSION OF SERIOUS MOOD IN ZULFIYA'S CREATION

Akhmadaliyeva Mahliyo Sherali qizi

Chirchik State Pedagogical University
Teacher, Faculty of Primary Education
Chirchik, Uzbekistan.

Abstract: One of the important directions of Uzbek literature of the 20th century is the Jadid movement and its artistic expression in the work of Zulfiya. Looking at the political, spiritual and aesthetic works of Jadid, an analysis of the expression of Jadid mood, historical memory and the enlightened spirit in Zulfiya's

work, such as the epic poem "Hayot varakhlari" and "Xotiram siniglari". In her works, the poet selflessly illuminates historical figures, the desire for knowledge, and the contradictions of religion and society. The study, based on the scientific views of O. Sharafiddinov and D. Kuronov, sheds light on the ideological connection between the ideas of Jadids such as Fitrat, Chulpon, and Qodiriy and the artistic heritage of Zulfiya. The article deeply analyzes Jadidism, its political assessment at different stages, and the poet's attitude to these ideas.

Keywords: Jadidism, Zulfiya, Fitrat, Chulpon, Abdulla Qodiriy, enlightened literature, independence, historical memory, artistic thought.

Аннотация: Одним из важных направлений узбекской литературы XX века является джадидское движение и его художественное выражение в творчестве Зульфийи. Рассматривая политические, духовные и эстетические произведения джадида, дается анализ выражения джадидского настроения, исторической памяти и просветленного духа в творчестве Зульфийи, таких как эпическая поэма «Хаёт варахлари» и «Хотирам синиглари». В своих произведениях поэтесса бескорыстно освещает исторические личности, стремление к знаниям, противоречия религии и общества. Исследование, основанное на научных взглядах О. Шарафиддинова и Д. Куронова, проливает свет на идейную связь между идеями джадидов Фитрата, Чулпона и Кадыри и художественным наследием Зульфийи. В статье глубоко анализируется джадидизм, его политическая оценка на разных этапах, отношение поэтессы к этим идеям.

Ключевые слова: джадидизм, Зульфийа, Фитрат, Чулпон, Абдулла Кадыри, просвещенная литература, независимость, историческая память, художественная мысль.

XX asrning eng ogʻriqli, eng katta va hech qachon oʻrganib tagiga yetib boʻlmaydigan mavzularidan biri bu – jadidizmdir. Jadid adabiyotining 1990-yilargacha har xil nomlarda u yoki bu tarzda talqin qilinishi mustabid tuzumning qattol siyosati sabab sodir boʻldi. Jadidlar aslida qanday bayroq ostida birlashishgan

edi? Ularning asl maqsadi ma’rif va ta’im, tarbiyamidi degan haqli savollar tegarsida qanchadan-qancha bahs-munozaralar olib borildi. Turkiston jadidlari esa har tomonlama kuchli, bilimli va xat-savodi masalasida ham ancha-muncha qatlamlarniegib qo‘ya oladigan tarzda tafakkur bilan qurollangandi. Bu haqda jadidshunos olim O.Sharafiddinov shunday yozadi: “1956 yilda shaxsga sig‘inish fosh qilingach, qatag‘on qilingan ko‘pgina odamlar oqlandi. Ular qatorida atoqli adib Abdulla Qodiriy ham bor edi. Oradan ko‘p o‘tmay, uning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari qayta nashr qilindi. Keyin odatdagidek romanlarga taqrizlar bitildi, adib to‘g‘risida maqolalar e‘lon qilindi, kitoblar yozildi, dissertatsiyalar himoya qilindi. Ishlar bir maromda ketayotganida bir masala ko‘ndalang bo‘ldi-yu, uning atrofida qiz-g‘in bahs qo‘zg‘oldi – Abdulla Qodiriy romanlari qaysi ijodiy metod asosida yozilgan? Ularni socialistik realizm metodiga mansub deb bo‘ladimi? Savol qaltis edi – chunki “yo‘q” deb javob bersa, yaqindagina oqlanib, dushmanlik belgilaridan xalos bo‘lib kelayotgan adibni to‘laqonli sovet yozuvchilari qatoriga kiritib bo‘lmay qolardi. “Ha” deb javob bersa, romanlarda socialistik realizm belgilarini topish amri mahol. O‘shanda ayrim adabiyotshunoslar tuzukroq dalil-isbotsiz Abdulla Qodiriy asarlarini socialistik realizm namunasi deb e‘lon qildilar-da, shu bilan bahsga chek qo‘yildi. Chek qo‘yildi-yu, lekin, baribir masala hal bo‘lmay qolaverdi. Bu, albatta, zo‘rma-zo‘raki hukm edi – o‘shandan keyin birorta adabiyotshunos bu muammoni qayta qo‘zg‘agani yo‘q”¹. Bunday bahslar davom etardi, olimlar o‘zaro tortishuvlar bilan masalaga yanada chuqurroq kirish o‘rniga sovet ittifoqining jonkyar targ‘ibotchisidek ko‘rinib, o‘zlarining ASL maqsadi nima ekanligini ham tuzukroq anglolmay arosatda qolgandilar. Demak, XX asrning asosiy masalasi ikki xil yondashuv va bir xil mazmunning shakllari edi. Shunday bo‘lsa-da, 70-yillargacha bu haqda “churq” etib og‘iz ochishga hadiksirash an‘anasi davom etdi. O.Sharafiddinov yozgan maqola nihoyat istiqlolning to‘rt yilligini nishonlash arafasida maydonga kelgan bo‘lsa, shoira Zulfiyaning “Hayot varaqlari” lirik

¹ <https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/maqolalar/263-jadid-adabiyoti.html>

dostoni ham o'sha davrning badiiy mazmuni ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Istiqloqlol bergan eng Oliy ne'mat – o'tgan ota bobolarimizning boy adabiy merosi bilan shaxsini oqlash, miliy qadriyatlarimizning bir uzvi sifatida yosh avlod ongiga singdirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu borada badiiy asarlarning yaratilishi kundan-kunga ortib borar, kim qanday usluda so'z aytsa, o'zining qurbi idrokicha jarayonni, o'tmishni, boringki, o'zi shaxsan ishtirok etgan voqeliklarning asl yuzini ko'rsatishni maqsad qilib qo'yganligida bilinardi.

Shoira Zulfiya bu borada sakson yoshga to'lib **“Xotiram siniqlari”**ga qo'l urdi. Dostonda jadid kayiyatining zuhur etilishi borasida quyidagi nazariy-ilmiy mulohazalarimizni ifodasiga kirishamiz. Zulfiya o'zining dostonida oilaviy-maishiy muammolarni umumturkiy miqyosga olib chiqishga intilar ekan, XX asr 20-yillaridagi adabiy muhitda Navoiy, So'fi Ollohyor, Mashrablarning oilasida sevib mutolaa qilinganini, mehribon volidasi muhtaramasi erinmasdan tushuntirib beranini ifodalaydi. Demak, shoira Fitratning “Munozara”sidagi masalani ham doston mohiyatiga mahorat bilan singdira olgan degan tushuncha paydo bo'ladi har birimizda.

Prof.D.Quronov talqinicha: “Sharqning taraqqiysi va shavkatini ta'minlagan islom mafkurasi uni tashuvchilarning kaltabinligi, “musulmonliq haqiqatidan bexabarligi”yu “Qur'oni karim oyatlarining aksariyatini shahvatparast havoyi nafslariga fido etganlari” tufayli keyincha Sharqni tanazzulga yuz tuttirdi. Din peshvolarining G'arb dunyosidagi taraqqiyot tamoyillaridan bexabarligi, ularning qay tomon borayotganini mushohada qilish va shunga muvofiq tadbir ishlash o'rniga ixotalanib, dindoshlariga “taraqqiyot va madaniyat eshiklarini yopganlari”, ular orasida “vahshiylik bisotini yoyganlari” Sharqni abgor, zabun holga tushirdi, jumladan, “Temurning nabiralari bo'yniga o'risning itoat arqonini bog'ladi”. Eng muhimi, bu xulosalar tarixni mushohada qilish asosida chiqariladi, tarixiy faktlarga tayanib asoslanadi. Fitrat islom Sharqidagi tanazzulning yana bir omilini “ummati Muhammadiyaning shia, sunniy, zaydiy, vahhobiy nomi bilan firqa-firqa qilib, birini biriga dushman qilib qo'yilgani”da ko'radi. E'tiborli jihati shuki, keyinroq

A.Qodiriy ham yurtidagi “qipchoq – qorachopon”, “Qo‘qon – Toshkent” qabilidagi bo‘linishlarni rus istibdodiga keng yo‘l ochgan omil sifatida talqin qilgan edi”² Binobarin, Prof.D.Quronov Fitrat an‘analarini Cho‘lponning she‘riy harakatlaridan kam emasligini isbotlarkan, jadid mavzusining to‘laqonli fenomenini bir maqola doirasida ochishga erishadi. Chunki jadid mavzusining o‘zi sertarmoq va katta bir plandagi monografik talqin ehtiyojini taqozo etadi:

Shoira Zulfiya dostonning ikkinchi qismi (*bu yerda syujet voqeligidan kelib chiqib o‘zimiz qismga ajratib talqin qilishni ma’qul ko‘rdik, -ta’kid bizniki -???*) da aks etgan syujet rivojida juda ko‘plab jadidona g‘oyalarning poetik ifodasi ochiqalanadi. Alam va o‘kinch, qayg‘u va iztiroblarning davomiyligi to‘g‘risida batafsil bilib olish imkoni tug‘iladi:

Qolganda azoblar iskanjasida,
Ota, bir ko‘rmadik ko‘zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasida,
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.

Va faqat dedingiz: “Soldim xudoga”,
Bu qirg‘in doyasi xudosizlar-ku,
... Sabr, qanotadan yaralgan elim,
So‘qir ham o‘ziga so‘qmoq izlar-ku?

Norg‘ul o‘g‘illaring qirildi shunday,
Sibirning nur tushmas o‘rmonlarida.
Sen esa yasharding misoli tushday,
Turtinib g‘ofillik tumanlarida³.

Shuni qayd etish lozimki, mazkur she‘riy parchada dostonning asosiy voqealar rivoji yuzaga chiqadi. Zulfiya bu yerda eng muhim jihatga mantiqiy urg‘u beradi. Ota va qiz orasidagi xayoliy munosabat – xotiraning o‘lmasligiga, millat

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/dilmurod-quronov-jadid-adabiyotida-tarix-kontsepsiyasi.html>

³ Зулфия. Тонг ва шом аро. –Т: “ШАРҚ. 2005. –Б.166.

oydinlarining o‘ziga xos kelajak sari qadam tashlashiga ishonch bildiradi. O‘tmish saboqlaridan xulosa chiqarib yashash oliy qadriyat, Alohning ham oldida o‘z vijdonini sotmasdan Vatanparvarlik ruhida ug‘ayishga keng yo‘l ochib beradi. Bunday deyishimizning asosiy sababi “Xudosa solish, bu qatliomning boshida Xudosizlar turishi”ni anglatish ham katta ma’naviy jasaoratligini juda kech tushunadi. To‘g‘ri mustabid tuzumning fosh bo‘lgan ASL masharasi balki undan ham ziyodidir. Turkistondagi xonliklaru amirlikni bir-biriga qayrab, o‘zaro dushman qilib, ichki nizolarni o‘ta maxfiy ravishda uyushtirib amalga oshirish taktikasini jadidlar bilmasmidi? Behbudiy ham, Fitrat, Munavvar Qoriyu, Cho‘lpon, Qodiriylar juda teran anglardi. Bu anglamlarning zamirida ularning asl maqsadlarining amaga oshirish imkoni sira bo‘lmasdi. Har tamonlama jismoiy va moddiy tomondan zaiflashib qolgan “Go‘zal Turkiston” xalqi xorijiy kuchlarning yordamiga muhtoj edi. Afsus, bunday yordamgacha ularni olib kelishmadi. Agar yana besh-o‘n yil ularning maqsadlariga qarshi hujum – qatag‘on quroli ishga tushmaganida jadidlar Turkistonni birlashtirish amaliyotini o‘tkazgan ham bo‘lardi. Zulfiya masalaning chuqur ildizigacha talqiniy kirib bora olgan. Mana shu jarayon jadidona kayfiyatning lirik doston arxitektonikasida izchil inkishof qilinib, milliy istiqlolning mazmun-mohiyatiga monand qadriyaviy mezonarning amalga oshishiga keng turti bo‘lid yesak, haq gapni aytgan bo‘lamiz:

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zulfiya. Tong va shom aro. –T: “SHARQ. 2005. –B.166.
2. Zulfiya. Asarlar. 3-jild. Kamalak. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 189.
3. Hasanov Sh. Doston tarkibi va tabiati. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – B. 146.
4. Akhmadaliyeva, M. (2024). THE HARMONY OF IMAGE AND LYRIC HERO IN THE POETRY OF THE POETRY. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(11), 390-393.

5. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. –T: “Akademnashr” . 2018. –B. 89.
6. Qayumov L. Zulfiya. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T.: 1975. – B. 187.
7. Akhmadaliyeva M.Sh. The poetry of the poet and the current literary process. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. Volume-5 2024-06-22
8. Ahmadaliyeva M.Sh. Zulfiya lirikasi va hayot yo‘li. Til va adabiyot ta’limi 2024-yil.3-son.
9. Ahmadaliyeva M.Sh. Ijodiy jarayonning mangukka yo‘g‘rilishi. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2024-5/4.